



## QADIMGI BUXORODAGI “GULI SANG” TARIXIY - ARXEOLOGIK TEPALIK HAQIDA AYRIM QAYDLAR

**Rajabov Oybek Iskandarovich**

BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o'qituvchisi

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 5-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 6-may 2026 yil

#### KEY WORDS

*Buxoro, tarixiy arxeologik ob'yekt, Shayxi kalon, Guli sng, Xo'jayi Romush, tarixiy qal'a, tepalik, xum, ibodatxona.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Buxoro viloyati Jondor tumani shimoliy hududida joylashgan, miloddan avvalgi VII-V asrlarda vujudga kelgan tarixiy qal'aning arxeologik o'rganganligi borasida atroflicha ma'lumotlar bayon etilgan.*

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, milliy va diniy qadriyatlarning qaytadan tiklanishi asnosida buyuk ajdodlarimiz qabrlari obod qilinib, eski maqbaralar ta'mirlandi va yangilari bunyod etildi. Mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotining “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” asosida boshlangan yangi bosqichida esa, yurtimizda, umuman, turizm, jumladan, ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi.

Qadimiy Turonning qoq markazida joylashgan O'zbekiston zamini shuhrati jahonga yoyilgan tarixiy shaharlari, boy tarixiy-madaniy merosi, jumladan, buyuk ajdodlarimiz tomonidan bino etilgan betakror me'moriy obidalari bilan mashhur. Bugungi kunda yurtimizda mavjud jami 7 ming 476 moddiy-madaniy meros ob'yektidan 4 ming 308 tasi arxeologik yodgorlik bo'lsa, 2 ming 79 tasi me'morchilik yodgorligidir. Mazkur yodgorliklardan bir qismi esa dunyo musulmonlari uchun muqaddas hisoblangan ziyoratgohlar jumlasiga kiradi.

XX asrda mamlakatimizning deyarli barcha mintaqasida olib borilgan arxeologik ilmiy tadqiqotlar natijasida ko'plab tarixiy tadqiqot obyektlari ochib o'rganildi. Jumladan, 1976 yilda “Guli sang” tepaligida arxeologik kidiruv ishlari olib borish ishlarida katnashgan respublika Fanlar Akademiyasi arxeologiya institutining ilmiy xodimi B.Uroqovning Jondor tuman gazetasining 1976 yil 20 may sonida e'lon kilingan ilmiy makolasida “Guli sang” tepaligi haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. “Guli sang”ning yaqin atrofida, uning sharq tomonida yana uchta tepalik mavjud bo'lgan. Shulardan birinchisi “Guli sang”-ga eng yaqini “Shayxi kalon” deb ataladi. Uning janubiy sharq tomonida yoy shaklida o'rab olingan tepalik “Xo'jayi Romush”-dir. “Shayxi kalon”dan shimoli-sharqda, 10-15 metrcha masofada uchinchi tepalik bo'lib, uning nomi aniqlanmagan ... 1975 yilda “Shayxi kalon”ning shimolidagi pastak, nomsiz tepa tekislanib, paxta maydoniga qo'shib yuborilgan. Biroq, 1973 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi arxeologiya institutining R.Sulaymonov boshchiligidagi Zarafshon arxeologik guruxi ushbu tepani ham planga tushirishga ulgurgan edi. Buldozer bilan tepani buzib tekislash paytida yer ostida ko'milib qolgan imoratning qalin devoriga duch

kelinadi. Devor buzilganda, bir xona va unda 12 ta xum qator turganligini ko'radilar. Qo'shni xonalarning biri odam suyaklari bilan liq to'lgan, boshqasidan yana 6 ta xum chiqadi. Qizigi shundaki, xumlar og'zining hammasi yerga qaratilgan bo'lib, osti teshik va ichi to'la kul - chala kuygan odam suyaklaridan iborat ekan.

Bu esa, shubhasiz, otashparastlar ibodatxonasi bo'lganidan dalolat beradi. Ular e'tiqodi buyicha odam o'lsa, yerga qo'ymasdan, uni olovda kuydirganlar, keyin kulini xumga solib quyganlar. Bunday xumlar ibodatxonalarda saqlanib, har bir avlod uchun ikkita xum, biri erkak, ikkinchisi esa ayol urug'doshlar uchun xizmat qilgan. Ya'ni, bitta ota-bolalari, nevara-chevara va evaralarining kuligacha o'sha xumga solingan. Demak, Romushda bir emas bir nechta qabila odamlari hamjihatlikda yashaganligi bu yerdagi xumlar soni va xonadagi suyak qoldiqlaridan ma'lum bo'ladi.

Aytish mumkinki, "Guli sang"dan shimoli-sharq tomonidagi buzib yuborilgan tepalik otashparaslarining ibodatxonasi ekanligiga shubha yo'q. Bu ibodatxona haqida Narshaxiy shunday qazib yuborilgan tepalik otashparastlarning ibodatxonasi qadimiysidir. Kayxusrav Romush qishlog'ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi. Otashparastlarning aytishicha, bu odatxona Buxorodagi otashparastlar ibodatxonasining eng Romush to'g'risida o'rta asrning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy "O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "... Navro'z oyining 28-kuni Buxoro otashparastlarining bayrami bo'lib, bu bayram "Romush-og'am" deb ataladi va xalq Romush qishlog'idagi otashparastlar ibodatxonasiga yig'iladilar ...". Demak o'tmishda Navro'zga bag'ishlangan "Romush - og'am" bayram shodiyonalari xalq sayliga, an'anaga aylanib qolganligi ta'kidlanadi.

Buxorolik tarixchi olim Narzulla Yo'ldoshev o'zining "Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi" asarida otashparastlikni shunday ta'riflaydi: "Otashparastlar oyning tug'ilish davrini chaqaloqlik, balog'atga yetish (14 kunlik), ya'ni mohitobonlik, qarilik va o'lish davrlariga ajratganlar. Eski Oy o'ladi. Uning o'rniga boshqa (yangi) Oy tug'iladi, deb hisoblaydilar. Otashparastlar osmon jismlariga, Quyosh, Oy va yulduzlarga ham sig'inishgan ...".

1973 yilda Zarafshon arxeologik otryadi "Guli sang" tepaligida tekshirish ishlarini olib borganda, bu yerda dastlabki hayot miloddan avvalgi VII-V asrlarda paydo bo'lganligi aniqlangan. Demak, tarixiy manbalarda tilga olingan qadimiy Romushtepa xuddi ana shu "Guli sang" tepaligi ekanligiga, qal'a esa bundan 2500-2700 yil ilgari bunyod etilganligiga shubha qolmadi. "Guli sang" to'g'risida shunday rivoyat mavjud: "Qadimda bir boy "Guli sang" tepaligi ustida qasr qurdirib, hovlisining o'rtasida bir hovuz barpo etibdi. Hovuzga sopol quvurlar orqali uzoqlardan suv keltirib, uni tulg'azibdi. Kunlardan bir kun boy hovuzga qarasa, hovuz o'rtasida katta bir tosh paydo bo'lib, uning ustida gul ochilib turganmish. Boy bu holni ko'rib, avval taajjubga tushibdi. Keyin vahima bosib, hovuzni ko'mdirib tashlabdi. Qasrlarni buzdirib, o'zi ham tez orada bu yerdan ko'chib ketibdi". Ana shu rivoyat ham tepalikning "Guli sang" nomi bilan atalishiga sabab bo'lsa kerak.

Mamlakatimizning betakror tarixini o'rganish, qadimiy shahar qoldiqlarini obod qilish, o'tmish tariximizni qayta tiklash va uni teranroq anglash, yoshlarimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirish yo'lidagi sa'y-harakatlardan biri bo'lib, ming yillardan qon-qonimizga singib ketgan an'analar, ezgu amallarni davom ettirish, xalqimizning muqaddas burchi ekanligini unutmashimiz lozim. Tarix xalq ma'naviyatining asosi hisoblanib, uni asrash har bir insonning burchidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. В.А.Шишкин. Варахша. М.,1963.
2. Ҳерман Вамбери.Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Т.,1990.
3. А.Муҳаммаджонов. Бухоро тарихи. Т.,1991.
4. М.Наршахий. Бухоро тарихи.Т.,1991.

5. Нарзулла Йўлдошев. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. Бухоро. 1993.
6. Ҳ.Асадов. Беш мўжиза-беш тарих. Бухоро. 2008.
7. Ҳ.Асадов. Аждодлари қимматли юрт. Бухоро. 2011.
8. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Т.2015.



INNOVATIVE  
ACADEMY